

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабинова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдуғани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвоҳид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решаёт задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счёт внедрения достижений научных исследований учёных и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

1. Mo‘minov Zokirjon

TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARIDA IJTIMOY MOBILLIKNI RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....5

2. Qosimov Vohid

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHDA “KOMPLAENS-NAZORAT” TIZIMI ROLINI OSHIRISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY, IJTIMOY VA HUQUQIY ASOSLARI.....12

3. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI FAOLIYATIDA MILLIY-MENTAL XUSUSIYATLARNI E‘TIBORGA OLISHNING AYRIM JIHATLARI.....19

4. Kulbekova Nasiba

TA‘LIM TRANSFORMATSIYASI: INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR, YANGI PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK YONDASHUVLAR HAMDA IQTISODIYOT SOHALARINING STRATEGIK RIVOJLANISH VAZIFALARI VA USTUVOR YO‘NALISHLARI.....26

5. Abduvaliev Fatxulla

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA TA‘LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI.....33

6. Akramov Xusan

RATSIONAL TAFAKKUR: ISLOMIY AN‘ANA VA SOTSIOLOGIK NAZARIYALAR KONTEKSTIDA TAHLIL.....46

7. Муллағалиева Фануза, Румянцева Екатерина

ОПЫТ ЖЕНЩИН В НАУКЕ УЗБЕКИСТАНА.....52

8. Mingbayeva Nozimaxon

JAMOATCHILIK FIKRINING FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDAGI IMKONIYATLARI.....59

9. Бозорова Ўлмасхон

БОШҚАРУВДА ЁШ РАЎБАРЛАР ИЖТИМОЙ КАПИТАЛИНИНГ АЎАМИЯТИ.....66

10. Mannanova Nilufar

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATCHILARI KO‘NIKMALARINI BAHOLASHDA DREYFUS MODELIDAN FOYDALANISH.....73

11. Tangirova Mavjuda

AYOLLAR MEHNAT MIGRATSIYASINING ASOSIY OQIMLARI VA ZAMONAVIY YO‘NALISHLARI.....80

12. Mirsoliyeva Nargiza

YAPON CHOY MAROSIMINING IJTIMOY-FALSAFIY AHAMIYATI.....88

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Abduvaliev Fatxulla,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti rektor maslahatchisi,
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YUQORI SINIF O'QUVCHILARI O'RTASIDA TA'LIM MIGRATSIYASI TOMON IJTIMOIY HARAKATLANISH SABABLARI TAHLILI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17048591>

ANNOTATSIYA

Maqolada muallif globallashtgan dunyoda kechayotgan intellektual migratsiya muammolarini tahlil etar ekan, uning mamlakatlar o'rtasida inson kapitalini qayta taqsimlashga olib keluvchi ijtimoiy tasniflarga e'tiborni qaratadi. Yuqori ilmiy salohiyatli va istiqbolli mutaxassislarning migratsiya jarayonlarda ommaviy ishtirok etishi, uni yo'naltiruvchi mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi va tabiiy ravishda ushbu mamlakatdagi inson kapitali, inson omili kabi ijtimoiy munosabatlarga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Ta'lim yoki intellektual migratsiyaning tarixiy shakllanish bosqichlari, ilmiy asosi davriy (sirkulyatsiya) ahamiyat kasb etib, uning vujudga kelish mezonlari, ijtimoiy sabablari ilmiy tasniflangan. Muammoning ko'lami yiriklashib, ommaviylashib borgan sari keng ilmiy jamoatchilikning migratsiyaga oid munozarali baxs-munozaralar ilmiy munozaralarda asosiy mavzuga aylandi. Muallif tomonidan bugungi asrimizning birinchi o'n yilliklarida dunyo hamjamiyati, shu jumladan MDH mamlakatlarida ilmga asoslangan iqtisodni shakllantirish, ijtimoiy hayotga nanotexnologiyalarni joriy etilishi va innovatsion taraqqiyot uchun mo'ljall olish kabi mavzular sotsiolog nuqtai nazaridan tizimli tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: o'quvchi psixologiyasi, migratsiya, intellektual migratsiya, ta'lim migratsiyasi, innovatsiya, globallashtuv, integratsiya, multikulturalizm, identiklik, mentalitet, stereotip

Абдувалиев Фатхулла,

Советник ректора Ташкентского
государственного технического университета,
доктор философии (PhD) по социологическим наукам

АНАЛИЗ ПРИЧИН СОЦИАЛЬНОЙ МОБИЛЬНОСТИ В НАПРАВЛЕНИИ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ МИГРАЦИИ СРЕДИ УЧАЩИХСЯ СТАРШИХ КЛАССОВ

АННОТАЦИЯ

В статье автор анализирует проблемы интеллектуальной миграции в глобализирующемся мире, уделяя особое внимание социальным классификациям, которые приводят к перераспределению человеческого капитала между странами. Массовое участие специалистов с высоким научным потенциалом и перспективой в процессах миграции оказывает значительное влияние на экономический рост стран-реципиентов, а также на социальные отношения, связанные с человеческим капиталом и человеческим фактором.

Исторические этапы формирования образовательной или интеллектуальной миграции, её научная основа, циркуляционный (возвратный) характер, критерии возникновения и социальные причины получили научную классификацию. По мере того как масштабы проблемы увеличиваются и становятся массовыми, дискуссии о миграции всё чаще становятся центральной темой научных дебатов. Автор системно анализирует с социологической точки зрения такие явления, как формирование экономики, основанной на знаниях, внедрение нанотехнологий в социальную жизнь и ориентация на инновационное развитие в мировом сообществе, включая страны СНГ, в первые десятилетия нашего века.

Ключевые слова: психология учащихся, миграция, интеллектуальная миграция, образовательная миграция, инновация, глобализация, интеграция, мультикультурализм, идентичность, менталитет, стереотип.

Abduvaliev Fatxulla,

Advisor to the Rector of Tashkent

State Technical University,

Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology

ANALYSIS OF THE REASONS FOR SOCIAL MOBILITY TOWARDS EDUCATIONAL MIGRATION AMONG HIGH SCHOOL STUDENTS

ABSTRACT

In this article, the author, analyzing the problems of intellectual migration in a globalized world, draws attention to the social classifications that lead to the redistribution of human capital between countries. The mass participation of highly qualified and promising specialists in migration processes significantly affects the economic growth of recipient countries, as well as social relations related to human capital and the human factor. The historical stages of the formation of educational or intellectual migration, its scientific basis, the circulatory (return) nature, the criteria for its emergence, and its social causes have been scientifically classified. As the scale of the problem expands and becomes more widespread, debates about migration increasingly become the central topic of scientific discussion. The author systematically analyzes, from a sociological perspective, such phenomena as the formation of a knowledge-based economy, the introduction of nanotechnology into social life, and the orientation towards innovative development in the world community, including the CIS countries, in the first decades of the 21st century.

Keywords: student psychology, migration, intellectual migration, educational migration, innovation, globalization, integration, multiculturalism, identity, mentality, stereotype.

KIRISH

Ijtimoiy hayotdagi voqe'lik ko'rsatmoqdaki, mavjud har qanday universitet va tadqiqot markazlarida yuqori malakali va intellektual salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash mumkin. Ammo intellektual qobiliyatga ega kishilarni mamlakat hududida ushlab turish, ijtimoiy-iqtisodiy infratuzilmaga jalb etishga har qanday mamlakatning imkoni yetavermaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, muammoning yechimini topish uchun hukumat darajasida istiqbolli rejalar ishlab chiqishga o'rganish kerak bo'ladi, yoki iste'dodli kishilarning mamlakatni tashlab chiqib ketishiga yon berishga majbur bo'linadi. Bugungi kunda migratsiyaga oid yozilgan sotsiologik adabiyotlarda intellekt egasining mamlakatni tark etish va migratsiyada ishtirok etishga nima majbur qilmoqda? Mamlakat intellektual migratsiya tufayli nimalarni yo'qotadi? – kabi savollar dolzarbligicha qolmoqda. Ayni damda ko'plab davlatlar, shu jumladan, O'zbekiston sharoitida ham ushbu masala ochiqlicha qolmoqda.

Intellektual migratsiya masalalari xorijlik tadqiqotchilar tomonidan XX asrning 90 yillarida “intellekt (aql)ning chiqib ketishi” fenomeni asosida o'rganila boshlandi. XX asrning oxirlari, XXI asr boshlarida fan va ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator xalqaro tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Jumladan, Unesco, Unisef, Open Society Foundations, DAAD, ITU, USAID, FSEOG, TEACH, STEM, KNB, KOICA, Schwarzman Scholars va boshqa shu kabi tashkilotlar ajratgan ilmiy

grant, loyiha, seminar trening, ilmiy anjumanlar ta'sirida nafaqat ilmiy-nazariy g'oyalar yig'ib olindi, balki iste'dodli qobiliyatli kishilarning rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketishlariga imkoniyat yaratildi [1]. MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiyasi ilk bor 2009 yili aql migratsiyani o'rganishni hukumat darajasida olib chiqdi [2].

Sotsiologik adabiyotlarda intellektual migratsiyaning mamlakatni tark etish, nimaga keltirilgan tarixiy dalillarga e'tibor qaratib shunday fikrga kelish mumkin, aql egalarining migratsiya jarayonlarida nima majbur qilmoqda, mamlakat intellektual migratsiya tufayli nimalarni yo'qotadi kabi savollar dolzarbligicha qolmoqda. Ko'plab davlatlarda, xususan, O'zbekiston sharoitida ham ushbu masala ochiqlicha qolmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur maqolani tayyorlash jarayonida mavzuga oid ilmiy manbalar tahlil etilib, uning asosida yuqori sinf o'quvchilarining kundalik hayoti va turmush tarzidagi ijtimoiy-madaniy xususiyatlarning COVID-19 koronavirus pandemiyasi davridan keyingi o'zgarib borish dinamikasiga e'tibor qaratildi. Bunda maktab o'quvchilarining ijtimoiy kayfiyati va qiyofasidagi ruhiy-ma'naviy omillarning transformatsiyalashuvidagi xususiyatlar tadqiqot ob'ekti sifatida ilgari surildi. Bu esa o'z navbatida xalq ta'limi tizimida an'anaviylik va zamonaviylik uyg'unlashuvidagi davriy-xronologik va tizimli-strukturali tahlilning sotsiologik asoslarini tashkil etadi. Maqolani yozish jarayonida foydalanilgan ilmiy-amaliy tadqiqot natijalarini shakllantirishda kuzatish usuli (vizual jarayon), kontent-tahlil, so'rov-anketa usuli, blis-tahlil (maxsus savol va gaydlar), fokus-guruh tadqiqotlar (davra suhbat) va ekspert baholash (mutaxassislar bilan suhbat) usullariga murojaat qilindi. Metodologik manba uchun strukturali-funksionalizm va tizimli yondashuv ta'limotlari tanlab olindi.

ASOSIY QISM


Bugungi kunda "intellektual migratsiya" tushunchasiga yagona mazmunda berilgan ilmiy ta'rif yo'q. Ammo tor ma'noda olib qaralsa, u ilmiy daraja va unvonga ega bo'lgan olim, mutaxassis hamda tadqiqotchilarni, keng ma'noda esa bilimli va malakali har qanday inson, jumladan, talaba yoshlar va yuqori kasbiy mahoratga ega qobiliyatli kishilarning migratsiya jarayonidagi ishtirokini nazarda tutadi [3; – B. 59]. Zamonaviy shart-sharoitlarda yuqori salohiyatli mehnat mobilligining tezlashuvi globallashuv jarayonlarning yanada tezlashishi va innovatsion texnologiyalarning yuqori sur'atlarda tarqalishi bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolada tadqiqot ishimizning ob'ekti sifatida olingan yuqori bilimli va istiqbolli yoshlarning ijtimoiy hayoti, uning predmeti uchun intellektual migratsiya namoyondalarining ijtimoiy guruh sifatida mobilligi sabablari va oqibatlari belgilangandi. Intellektual migratsiya masalalari xorijlik tadqiqotchilar tomonidan XX asrning 90yillarida "intellektualning chiqib ketishi" fenomeni asosida o'rganila boshlandi, ko'plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, Unesco, Unisef, DAAD, ITU, USAID, FSEOG, TEACH, STEM, KNB, KOICA, Schwarzman Scholars va boshqa bu kabi nufuzli tashkilotlar ushbu muammoga ko'plab ilmiy grantlar ajratdi va loyihalar ishlab chiqdi. Faqatgina MDH davlatlari ichida Rossiya Federatsiyasi ilk bor 2009 yili aql migratsiyasini ilmiy tadqiqot sifatida o'rganishni hukumat darajasiga olib chiqishga erishdi [4].

Ijtimoiy chegaralarning harakatchanligi birinchi navbatda yangi global infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq. Shaxs va o'ziga xos milliy jamiyat o'rtasidagi aloqalarni uzishga yordam beradigan mashinalar va texnologiyalarning paydo bo'lishi, ijtimoiy "mintaqa"ning makon-vaqt parametrlarining tubdan o'zgarishiga va amaliyotning printsiplial yangi shakllarining paydo bo'lishiga olib keldi. Endi odamlar niyatlari va xatti-harakatlari bilan bevosita bog'liq emas, balki ko'plab inson va inson bo'lmagan aktorlarning o'zaro ta'siriga bog'liq. Muayyan jamiyat doirasida vaqt va makonda tarqalgan ko'plab jarayonlarni amalga oshirish mumkin.

«Sizningcha, yuqori sinf o'quvchilarining hozirgi avlodi mustaqil "kattalar" hayotiga tayyormi» degan savolga jami respondentlarning 44,8 % «menimcha yo'q» javobini belgilagan bo'lsalar, 17,1 % respondent «yo'q» degan javobni qayd etadi. Umuman olganda tadqiqotda ishtirok etgan jami o'qituvchilarning 65,0 % ga yaqini bugungi yuqori sinf o'quvchilarini mustaqil hayotga tayyorligiga katta ishonch bildirmaydilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra tahminan 25,5 % o'qituvchilar

o‘z shogirdlarining mustaqil hayotga tayyorgarligini bildiradilar. Albatta ushbu masala jamiyat a‘zolari va mas‘ul kishilarni, yoshlar tashkilotlarini jiddiy o‘ylantirishi kerak (1-rasm).



1-rasm: Sizningcha, yuqori sinf o‘quvchilarining hozirgi avlodi mustaqil “kattalar” hayotiga tayyormi?

Biz har bir tadqiqotdan keyingi tadqiqotlarga o‘tganimiz sari to‘liq ishonch hosil qilmoqdamiz: “Ta’lim tizimi maktablarda jiddiy islohotlarga ehtiyoj sezadi. Ayni damda aybdor izlash va kimnidir jazolash hech qanday samara bermaydi. Ushbu muammoning ildizi uzoq 15-20 yilliklarga taqaladi. Bunda oliy ta’limga kirish jarayonidagi uzoq yillar davom etgan korrupsiya, ta’lim sifati va uni moliyalashtirishga bo‘lgan e’tiborsizlik, tanish-bilishchilik va ma’suliyatsizlik, har besh yilda o‘zini oqlasa-oqlamasa yangicha islohotlarga o‘taverish kabi omillarni misol tariqasida keltirish mumkin. Shuning uchun tezlikda keskin chora-tadbirlar ishlab chiqib, birinchi navbatda otanonalar ma’suliyatini qonunchilik darajasida belgilash, kerak bo‘lganda javobgarlikka tortish, o‘quvchilarning biron soat ham dars qoldirmasligi va bironta ham darsni o‘zlashtirmasligiga izn bermaslik. O‘qituvchi ham, o‘quvchi ham o‘z ustida soatlab ishlaydigan mexanizmni yaratish uchun kuchli qonunchilik me’yorlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda intellektual migratsiyaning samaradorligini baholashdagi uchta asosiy yondashuv mavjud bo‘lib, u quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Birinchidan, ingliz tilida “Brain drain”, ya’ni intellektual migratsiyaning sinonimi sifatida qo‘llaniladigan, intellekt egalariining bir muhitdan ikkinchisiga chiqib ketishi tushuniladi. Unga ko‘ra, asosiy diqqat e’tibor intellektual migratsiyani eksport qiladigan mamlakatlarga nisbat berilib, salbiy ma’noda qo‘llaniladi. Ta’limning davlat tomonidan muhofaza qilinishi intellektual migratsiya sur’ati avjiga chiqqanda avvalo soliq to‘lovchi tomonidan to‘langan soliqlarning sovrulishini hamda unga yo‘naltirilgan juda katta hajmdagi investitsiyaning “izsiz” yo‘qolishiga sabab bo‘ladi. Jiddiy muhokama qilinadigan bo‘linsa, bunda soliq to‘lovchining sarflagan harajatlarini oqlamagan va yuqori samarador iqtisodiyotning o‘rishini ta’minlab beradigan bilimli, iste’dodli va malakali jamiyat a‘zolarining yo‘qotilishi tushuniladi [5]. Ta’kidlash joiz, mamlakatni yillar davomida yuqori malakali mutaxassislar tark etishda davom etadigan bo‘lsa, unda iqtisodiy ishlab chiqarish sur’ati va hajmi keskin pasayib boradi va bu o‘z navbatida ishsizlik darajasining oshib borishiga olib keladi [6; – B. 681-730].

Makroiqtisodiyot va mehnat sotsiologiyasi kabi fanlar bo‘yicha yozilgan ilmiy adabiyotlarda “intellektning chiqib ketishi” quyidagicha izohlanadi: “Iqtisodi kam ravojlangan hududlarda malakali kadrlar hamma vaqt ham yetishlmagan. Sababi bu holat mehnatga mos kapital sarflanmasligi va daromadlarning yetishmasligi, yoki yuqori emasligi bilan izohlanadi. Chunki, hudud (ayniqsa, chekka joy)larga investitsiyalar hamma vaqt yetib kelmaydi va bu o‘z navbatida ishlab chiqarishning past darajada qolib ketishiga sabab bo‘ladi. Aynan shu jihatlar ham bilimli va malakali xodimlarni markazga yoki xorijga chiqib ketishi, ya’ni “intellektual oqimning tezlashishi va ko‘payishiga” yo‘l

ochib beradi [7; – B. 92-96]. Rivojlanib kelayotgan mamlakatlardan “intellektning chiqib ketishi” har qanday zamonaviy jamiyatning asosi bo‘lgan o‘rta sinfning “parchalanishi”ga olib keladi. Istiqbolda, ushbu jihatlar asta-sekinlik bilan kolonializmning yangicha shaklini paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Avvallari “koloniya”lar metropol (o‘z xo‘jayinlari)lariga tayyor mahsulot yoki xom-ashyo yuborgan bo‘lsalar, endilikda rivojlanib kelayotgan mamlakatlar ko‘p hollarda “sobiq ega”larini tayyor (yuqori malakali) mutaxassislar bilan ta‘minlamodalar va evaziga hech qanday narsa olmayapti (talab etmayapti)lar [8].

Ikkinchidan, ingliz adabiyotlarida uchraydigan Brain Gian yoki “intellektual oqim” deb nomlangan g‘oyaga ko‘ra, eksport qiluvchi davlatlar mavjud migratsiya siyosatini malakali tarzda yo‘lga qo‘yib, intellektual migratsiyada ishtirok etayotgan mutaxassislar faoliyatidan yutishlari ham mumkinligi ta‘kidlanadi. Ushbu yondashuv “borib yana qaytib keluvchi”, ya‘ni rotatsiyaga asoslangan shaklda amalga oshiriladi. Unga ko‘ra intellekt egasi nafaqat g‘oya va tashabbus tashuvchisi, balki topgan daromadining bir qismini o‘z Vatani yoki mutaxassis sifatida shakllantirgan o‘z tashkilotiga yo‘naltirishi mumkin. Bunda tabiiyki, eng qimmat manba sifatida ilmiy bilimlar va axborot manbalari xizmat qiladi. Albatta, ushbu sharoitda intellektual migratsiya faqat bitta holatda samara berishi mumkin, ya‘ni uning ishtirokchisi yuksak kasbiy darajaga erishgan bo‘lishi kerak. Chunki ko‘p mutaxassislar o‘z imkoniyati yoki salohiyati darajasidagi ishni topolmaydi va umuman aqliy mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan ishga jalb etilmasligi mumkin.

Uchinchidan, ingliz ilmiy manbalaridagi “Brain waste” atamasi bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, unga ko‘ra “aqlni isrof qilish” yoki joyida ishlatmaslik tushuniladi. Unga ko‘ra migrantning o‘z aqliy salohiyatini butunlay boshqa sohaga yo‘naltirganligi nazarga tutiladi. Jumladan, O‘zbekiston sharoitida har yili 5000 tadan ko‘p kishi Amerika Qo‘shma Shtatlariga borish uchun “Green Card” lotereyasi sohibiga aylanadilar. Ammo, ularning (yoki oila a‘zolari) orasida ko‘plab intellekt egasi bo‘lgan salohiyatli kishilarning katta qismi o‘z imkoniyati va qobiliyatidan past darajadagi ish (soha)larda faoliyat yuritadilar. Bu esa ba‘zida oliy ma‘lumotli emigrantlar orasida o‘z kasbiga oid ish topolmaganligi uchun ko‘plab asabiy va ruhiy zo‘riqish holatiga tushishni ham bildiradi. Lekin shunday bo‘lsada, har yili “farovon” hayot kechirish yoki o‘z farzandlarining istiqbolini o‘ylagan holda, minglab oilalar o‘z mamlakatlarini tashlab, rivojlangan mamlakatlarga chiqib ketish uchun harakat qilmoqdalar.

Ta‘kidlaganimizdek, “inson kapitali” omilini belgilovchi hodisa sifatida bugungi kunda ko‘plab oilalar o‘z farzandlarining rivojlangan va taraqqiy etgan mamlakatlarga chiqib ketishlari uchun yuqori sifatli ta‘lim berishga ko‘p kuch sarflamoqdalar. Buning uchun ko‘pchilik insonlar farzandlariga ilk bolalikdan boshlab ingliz, fransuz, nemis tillarida mukammal so‘zlashlari uchun o‘z daromadlarining katta qismini sarflashga o‘tdilar. Aslini olganda sarflanayotgan juda katta mablag‘ nafaqat oilaning daromadiga, balki mamlakatning moliyaviy, iqtisodiy ta‘minoti, shuningdek iqtiboldagi strategik rejalariga ham sezilarli ta‘sir o‘tkazishi mumkin.

So‘nggi yillarda intellektual migratsiya kuchaygan mamlakatlar hududlarida horijiy universitet va tashkilotlarining filiallarini ochilishi, unga iqtidorli, yuqori kasbiy mahoratga ega bo‘lgan mutaxassislarning jalb etilishiga qaramasdan, asosiy moliyaviy kapital yetakchi mamlakatlarning nufuzli banklari hisob raqamiga borib tushadi. “Intellektual oqim” jarayonlari intellektual migratsiyaning sinonimi sifatida e‘tirof etilsada, ikkinchi holat bir muncha murakkab va ko‘p qirrali jarayon sanaladi. Shundan kelib chiqqan holda intellektual migratsiyaning dinamik rivojlanib borish va transformatsiyalashuv jarayonlarini har tomonlama o‘rganish va monitoring qilib borish lozim bo‘ladi. Zamonaviy jamiyatda intellektual migratsiyada ishtirok etayotgan va qatnashganlarning ikkinchi va uchinchi avlodlari Hindiston, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Turkiya kabi davlatlar tajribasida kuzatiladi. Ular endi ish joyi qidiruvchi, o‘z qobiliyati va salohiyatini taqdim etishdan ko‘ra, butun bir intellektual tizimni nazorat qilish va boshqarish mexanizmlarini olib borish qudratigacha ega bo‘ldilar.

Xalqaro tajribada intellektual migrantlarning eng birinchi ishtirokchilaridan hisoblangan Hindistonni olib qaraydigan bo‘lsak, uning vakillari aql salohiyati yordamida o‘zlarining ona vatanlariga nafaqat sarmoya kiritish, balki butun bir kampaniyalarni jalb etish imkoniyatigacha ega

bo'ldilar. E'tiborlisi, mamlakatga kirib kelayotgan investitsiya va innovatsiyalarning asosiy hajmi aynan aql migrantlari va ularning farzandlari tomonidan amalga oshirilib kelinmoqda [9; – B. 261].

Yana bir muhim misol sifatida, Xitoy tajribasini keltirib o'tish mumkin. O'tgan asrning 80-yillarigacha ushbu mamlakat "intellektual oqim"dan sezilarli darajada aziyat chekdi. Shu vaqtda rivojlangan Yevropa davlatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada va boshqa mamlakatlarda ta'lim olayotgan xitoylik yosh mutaxassis va intellekt egalarining qariyb 75 foizi tug'ilgan yurtga qaytishni istamagan. Xitoy hukumatining ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda olib borgan siyosati natijasida 2002 yildan boshlab vaziyat tubdan o'zgara boshlaydi. Shu yili 30 foiz atrofida iste'dodli va qobiliyatli yoshlar mamlakatga qaytadilar. Xitoy hukumati intellektual armiya, birinchi navbatda horij mamlakatlari, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlarida ta'lim olgan va aql markazlarida faoliyat yuritayotgan yoshlarni ortga qaytarish uchun "Xitoy manfaatlari yo'lida ishlashga chorlovchi" maxsus dasturni ishlab chiqadi. Buning uchun hukumat Shanxayda "Pudun" maxsus iqtisodiy hududini tashkil etadi va uni yanada rivojlantirish uchun AQShning "Silikon vodiysi" bilan bog'lab qo'yadi. Natija tezda samara beradi, ko'p o'tmay, ya'ni 1999-2002 yillar oralig'ida "Silikon vodiysi"da xitoylik iste'dod va iqtidor egalarining soni 30 tadan 500 tagacha yetadi [10; – B. 67]. Bugunga kelib ushbu aql makonida o'n minglab xitoyliklarni ko'rish mumkin.

An'anaviy tafakkurga asoslangan jamiyatlarda fan va ta'limga asoslangan "inson kapitali" omilini mamlakat ichida sarflash nazarda tutiladi. Buning uchun fan-ta'limga oid masalalar milliy ko'lamda amalga oshiriladi, ammo so'nggi o'n yilliklarda vaziyat sezilarli o'zgardi, inson kapitali mobil holatga kelib qoldi. Ma'lum bir soatlar ichida insonlar bir joydan ikkinchi joyga borishi oddiy voqealikka aylanib qolmoqda, ko'chma ma'noda olib qaraydigan bo'lsak, virtual olamni bir qismiga aylangan, fan va ta'lim uyushmalari eng oddiy g'oyadan tortib murakkab kashfiyotlarga qisqa vaqtning ichida bir-birlariga yetgazib olishlari mumkin. Munozarali muammoga aylangan inson kapitali masalasi insoniyatni qiyin ahvolga solib bormoqda. Milliy taraqqiyot uchun xizmat qiladigan ta'limga yo'naltirilgan inson kapitaliga kuch bo'lishi kerakmi, yoki oldingi qatorlarda turadigan mamlakatlarning inson kapitaliga bilimni import qilishi kerakmi?!

Intellektual migratsiya yoki migratsion intellektual sirkulyatsiyaga talabalarni jalb qilish uchun, inson kapitali tashuvchilari yuqori salohiyatga egaligidir. Ushbu strategiya asosan qabul qiluvchi mamlakat uchun foydalidir: mutaxassislar malakasini oshirish (xorijiy talabalar o'z hisobidan ko'pchilikni tez-tez o'rganish kerak emas), mahalliy mehnat bozori talablariga javob beradigan mutaxassisni yetishtirishingiz mumkin. Mutaxassis turgani uchun katta harakatlar qilish, shuningdek, u yana qaytib kelmaslik uchun hamma narsani qiladi. Bundan tashqari, ta'lim xizmatlarining bunday eksporti qabul qiluvchi, ya'ni iqtisodiyoti yuqori bo'lgan mamlakatlar uchun daromadlarning salmoqli yo'nalishidir.

Bugungi kunda, zamonaviy iqtisodiyot bu axborot texnologiyalar va innovatsiyalar iqtisodiyotidir. Bu shuni anglatadiki, yuqori malakali mutaxassislar umuman individual kompaniyalar va mamlakatlar uchun tobora ko'proq strategik ahamiyatga ega, chunki bu inson kapitalining yuqori sifati, xalqaro bozorlarda raqobat targ'iboni raqobatbardosh ustunlik qiladi. Ta'lim migratsiyasi uchun shart-sharoit yaratgan mamlakatlar, kelajakda davlat strateriyasini, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni kiritishga poydevor yaratib beradi.

Ta'lim migratsiyasi orqali rivojlanayotgan mamlakatlardan yuqori malakaga ega bo'lgan iqtidorli mutaxassislarni olib chiqib ketish, vatandosh mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy holati cho'kishiga olib keladi. Ma'lumki, bir ishga yaroqli, malakali kasbiy mahoratga ega bo'lgan iqtidorli mutaxassisni tayyorlash uchun 25-30 yil vaqt kerak bo'ladi. Shuning uchun mamlakat har bir iqtidorli mutaxassisni saqlab qolish uchun imkoniyatlar yaratishi, yuqori iqtisodiy ko'mak bilan rag'batlantirilishi amalga oshirilmasa, o'z o'zidan mutaxassisning mamlakatni tashlab chiqib ketishi tezlashadi. achinarlisi har bir chiqib ketgan iqtidorli mutaxassis uchun davlat o'zining kamida 15-20 yillik faoliyatini yo'qotgan bo'ladi.

So'nggi yillarda migrantlarni qabul qiluvchi, iqtisodiyoti yuqori bo'lgan mamlakatlar statistikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ko'plab rivojlangan davlatlar malakali mutaxassislarga ega bo'lishga urinayotganlari va intellektual migratsiya jarayonlarini yanada qattiq nazorat qilishga intilayotganlarini kuzatishimiz mumkin. Asosiy maqsad, mamlakatga katta iqtisodiy daromad

keltiradigan insonlarni jalb etish. Ko'plab qabul qiluvchi mamlakatlar ish beruvchi yoki ishga qabul qiluvchi, kasbiy yuqori salohiyatga ega yoki sohada muvaffaqiyat qozongan nomzodlarni tanlash uchun mo'ljallangan migratsiya dasturlarini amalga oshirmoqdalar.

Ma'lumki, inson kapitali qiymati tashqi omillar tufayli pasayishi mumkin. Masalan, Afg'onistondagi siyosiy inqiroz muayyan ko'nikma va bilimlarga ega bo'lgan insonlarni o'z vaqtida "qochqin" maqomi sifatida olib chiqib ketilishiga ma'lum vaqt to'sqinlik qilishi mumkin. Ammo, rivojlangan mamlakatlar ushbu mamlakatning eng salohiyatli kishilarini baribir olib chiqib ketadilar. Ushbu holatda o'z mamlakatida mutaxassis sifatida kerak bo'lmagan kishilar, ular uchun inson kapitali omilining buzilishiga sabab bo'lganligini bildiradi. Shuning uchun, ushbu vaziyatda har bir individ uchun intellektual migratsiya to'g'risidagi g'oyani qabul qilish adolatli bo'ladi. Afg'onistonlik "qochqin"larning katta qismi qaysidir bir mamlakatlar uchun intellektual salohiyatni namoyon etmasligi mumkin, ammo o'z mamlakati miqyosida ularning yuqori imkoniyatlari istiqboldagi strategik masalalar yechimini topishda faqat zararga ishlaydi.

Intellektual migratsiyada inson kapitali omilining eng yuqori tashuvchisi sifatida talaba yoshlar ishtirok etmoqdalar. Avvaliga turli xil grant va loyihalarni jalb etgan holda iqtidorli yoshlar jalb etilayotgan bo'linsa, bugungi kelib mamlakat ichkarisida tashkil etilgan va etilayotgan o'nlab nufuzli universitetlarning fiallari iqtidorli va salohiyatli yoshlarni saralab olmoqda. Bu usul nisbatan arzon bo'lib, imkoniyatlari ham keng. Unda yetakchi mutaxassis ekspertlarni jalb etgan holda, mamlakatning ichkarisida turib iqtidorli kishilarni ajratib olish mumkin.

Ta'lim mamlakat hududining o'zida olib borilsa-da, yetuk diplomli mutaxassislarni keyinchalik ham o'z mamlakatida hududida ushlab qolish kafolati kam. Buning sababi, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda ilg'or texnologiyalar va zarur shart-sharoitlarning hamma vaqt yetarli emasligidir. Shunday bo'lsada, ushbu jarayonni to'xtatib qo'yish kerak emas. Xitoy, Hindiston, Yaponiya, Janubiy Koreya tajribasidan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, ma'lum bir vaqt o'tgach mamlakat eksport qilgan intellektual migrantlar yoki ularning izdoshlari (farzandlari) o'zlari tug'ilib o'sgan mamlakat iqtisodi va infratuzilmasining rivojiga yirik innovatsion sarmoyalarni jalb etishi mumkin.

O'zbekistonda 2020 yilda mehnat migratsiyasiga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishga e'tibor qaratildi. Bunda tashkiliy tartibdan o'laroq, fuqarolarimizni xorijga ishga joylatirishda fuqaroning kasbga, hunarga va xorijiy tillarga o'qitish masalasiga alohida e'tibor qaratildi. Bugungi kunda kasbga o'qitish markazlari 191 taga yetkazildi, yaqin davrlar ichida ularning miqdori 200 dan oshishi kutilyapti. Shuningdek, 136 ta mahallada kasbga o'qitish maskanlari tashkil etildi. Kasbga o'qitish markazlari qamrovi ko'p emas. Ular bir vaqtning o'zida 100-200 odamga xizmat ko'rsata olmaydi. Kasbga o'qitish maskanlari faoliyat turidan kelib chiqib, 1-3-6 oylik dasturlar asosida o'qishlarni tashkil etmoqdalar. Tabiiyki, bunda eksport qiluvchi mamlakat sifatida uzoqni ko'ra oluvchi strategik reja va istiqbolli dasturlar bo'lishi talab etiladi.

Intellektual migratsiyada ishtirok etayotgan talabalarining boshqa migratsiya turlaridan farqi nimalarda bo'lishi mumkin? Talaba nufuzli xorijiy universitetda bilim olar ekan, u bilib olish jarayonida o'zga muhitga ko'nikma hosil qiladi. O'z sohasi bo'yicha ish topish ta'lim olish faoliyatida bir qadar oson kechadi. U nufuzli universitetni tamomlar ekan, hech qachon kam haq to'lanadigan ish yoki kasbiy faoliyatga o'z qobiliyatini safarbar etmaydi. Ta'kidlash jozi, fan va innovatsiyalar olamida butun dunyo bo'ylab talabalar miqdori o'tgan asrga nisbatan bir necha barobar oshdi. E'tirof etadigani shundaki, bugun yer yuzi bo'ylab ishtirok etayotgan intellektual migrantlarning yarmidan ko'pi Osiyo mamlakatlari talabalari hisobiga to'g'ri keladi. 2001 yil ma'lumotlarga qaraganda, xorijda ta'lim olayotgan talabalar Rossiya Federatsiyasidan 71.000 ta, Hindistondan 223.000 ta va Xitoydan 723.000 tani tashkil etayotganligini kuzatish mumkin [11].

Shu yili yer yuzi bo'ylab 4.3 mln. talaba o'z yurtidan boshqa mamlakatlarda ta'lim olganliklari ma'lum bo'lgan. E'tiborlisi so'nggi yillarda nafaqat rivojlanib kelayotgan, balki iqtisodi yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar talabalari ham migratsiya jarayonlarida faol ishtirok etib, o'z mamlakatlarga qaytishni istamayotganliklari ma'lum bo'ladi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotlari (OESD) ma'lumotlariga ko'ra Avstraliya, Kanada, Chexiya, Fransiya kabi iqtisodiyoti yuqori mamlakatlarning 30% dan ortiq xorijda ta'lim olayotgan vatandosh talabalari o'z yurtiga

qaytishni istamaydilar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, intellektual migratsiya butun yer yuzi bo‘ylab oddiy tendensiyaga aylangan [12].

1 - jadval

Chet elga borgan tadqiqodchilarning yoshi va jinsi %				
Yosh	Hammasi	Erkak	Ayollar	Ayollar %
29 yoshgacha	13.1	12.3	15.7	29.4
30-39	27.3	25.5	32.7	29.5
40-49	31.6	31.3	32.3	25.2
50-59	20.7	22.2	16.1	19.2
60-69	6.4	7.6	2.9	11.2
70 yoshdan yuqori	0.9	1.1	0.3	7.7
Jami	100.0	100.0	100.0	24.6

Manba: Korobkov, A. V. and Zh. A. Zaionchkovskaia. “Russian Brain Drain: Myths and Reality.” Communist and Post-Communist Studies. Special Issue on Disintegration of the Soviet Union. Twenty Years Later. Assessment. Quo Vadis? Richard Sakwa and Andrey Kazantsev, eds., vol. 45, no. 3-4, September-December 2012, 327-4; O chislenosti sotrudnikov, rabotavshix za rubejom v 2002 godu. Moskva: Gos-komstat Rossii. Indeks 3808, kod raboty 1512003, 2003.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra 2019-yilda dunyodagi migrantlar soni 272 mln.ga yetdi. Ularning eng ko‘p qismi Yevropa davlatlari (82 mln), Shimoliy Amerika (59 mln), Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo (49 mln) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yevropa davlatlarida bugungi kunda 2 mln., Shimoliy Amerikada 59 mln., Shimoliy Afrika va G‘arbiy Osiyo davlatlarida 49 mln. mehnat migrantlari mavjud. Intellektual migrantlar sifatida e’tirof etilayotgan talabalar ilmiy adabiyotlarda “Xalqaro talaba”lar deb nomlanadigan bo‘ldi. Bugungi kunda xorijda ko‘proq qaysi kasblarga talab kuchli, shulardan kelib chiqqan holda o‘qishlar tashkil etilishi yo‘lga qo‘yiladigan bo‘lindi. Bugungi O‘zbekiston sharoitida mahallalarda tashkil etilgan maskanlarda to‘rttagacha kasbga o‘qitiladi. Bular – tikuvchilik, kompyuter savodxonligi, pazandalik va sartaroshxona xizmatlari. Kasbga o‘qitish markazlarida esa 22 turdagi kasblar o‘rgatiladi. Xalqaro talabalar bu intellektual migratsiyaning yuqori bilimli va malakali ishchi kuchi sifatida e’tirof qilinadigan manbaga aylandi. sababi xalqaro talabalar eng kamida uchtdan yettitagacha xorijiy tillarni o‘zlashtirgan bo‘ladi. Axborot texnologiyalaridan yuqori kasbiy darajalarda foydalanadigan va “bolaligidan mahkum qilingan” motivatsiya asosida tarbiyalangan shaxslar asosan “xalqaro talabalar”ni tashkil etmoqdalar. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Cooperation and Development) tadqiqodlariga ko‘ra, xalqaro talabalarining yosh ko‘rsatgichi 20-24 oralig‘ida bo‘lib, bugungi kunda ular yer yuzidagi jami aholi sonining 4.3% tashkil etadi. Shulardan faqatgina 1% o‘z vatanlariga qaytishi mumkin [13].

Hozirgi davrda tartibli mehnat migratsiyasini nisbatan yuqori darajada tashkil etgan davlat sifatida Fillipinni misol keltirish mumkin. Tashqi mehnat migratsiyasi jarayoni ushbu davlat iqtisodiyotining moliyaviy donori sifatida baholanadi. Mazkur davlatda bir yilda o‘rtacha 1,6 mln. fuqaro tashkillashtirilgan tartibda mehnat migratsiyasiga yuboriladi. Jami 10 mln.ga yaqin Fillipin fuqarolari mehnat migranti hisoblanadi. Pul jo‘natmalari davlat daromadining o‘rtacha 11 foizi yoki yiliga o‘rtacha 21,3 mlrd dollarni tashkil etadi [14;]. Lekin, shunga yarasha intellektual migratsiya saldosi ham ushbu mamlakat hisobiga so‘nggi yillarda oshib bormoqda. Aholining xalqaro intellektual migratsiyada ishtirok etishi hamon murakkab hodisa sifatida qolmoqda. Uning hajmi yildan yilga keskin ko‘payib bormoqda.

Ko‘plab mamlakatlar milliy iqtisodiyotni xalqaro raqobatbardoshlik tizimiga bardosh berolmasligi, mehnat bozorida globallashtirish tendensiyasining oshib borishi, bevosita va bilvosita byurokratik mexanizmlarning tizimli faoliyatni amalga oshirilishi natijasida ham intellektual migratsiya transformatsiyasi tezlashib bormoqda. O‘zbekiston sharoitida ham ushbu omillarni asosiy sababchisi sifatida ko‘rsatish mumkin. Fundamental tadqiqotlar va ilmiy ishlar asosida qurilayotgan zamonaviy iqtisod intellektual migratsiyaning ijtimoiy xususiyatlarini vujudga keltirmoqda.

Ta'kidlash joizki, bugungi kundagi intellektual migratsiya dunyo iqtisodiy munosabatlarining ajralmas bir qismiga aylandi. Xalqaro mehnat migratsiyasi butun dunyoning rivojlanish darajasi va statistik ma'lumotlar ko'rsatkichlariga qanchalik jiddiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, intellektual migratsiya uning ijtimoiy va iqtisodiy qiyofasini butunlay o'zgacha ko'rinishga olib keldi. Mehnat migratsiyasi etnik va diniy omillarga ta'sir o'tkazgan bo'lsa, intellektual migratsiya kasbiy faoliyatni iste'dod va qobiliyatga bog'lab qo'ydi. Davlat tahliliy markazlari tomonidan migratsiya jarayonlari o'rganilar ekan, migratsiya siyosatini tartibga solish uning imkoniyatlarini sekinlashtirish uchun turli xil byurokratik mexanizmlar qo'llaniladigan bo'lindi. Ammo, bu bo'layotgan jarayonlarni ma'lum bir vaqtgagina to'xtashi mumkin. Ushbu holat muammodan chiqishning asosiy vazifasi bo'la olmaydi. Chunki byurokratik chora-tadbirlar ish samaradorligi va mehnat unumdorligi sifatiga salbiy ta'sir o'tkazadi. Taraqqiyot va rivojlanish sur'atini sekinlashtirish mahsuldorlik va foyda hajmini keskin pasayishiga olib keladi va ma'lum muddatgagina intellektual migratsiyani to'xtatib turishi mumkin.

Har qanday texnologik mexanizm abadiy bo'lmaganidek, byurokratik faoliyatning ham o'z kulminatsiyasi bor. Uning baribir yakuniy nuqtasi bo'lib, o'zining cho'qqisiga chiqqanda va byurokratik faoliyatlar butkul avjiga chiqib ketib, yakuniy nuqtasi amalga oshgach, vaziyatni kutib turgan juda katta hajmdagi istedadli va yuqori kasbiy mahoratli kishilar mamlakatni birvarakayiga tashlab chiqib ketishi mumkin. Bu esa mamlakatning nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlariga balki, madaniy-siyosiy, axloqiy va ruhiy oqsashiga olib keladi.

Intellektual migratsiyani sotsiologik tadqiq etishga oid bo'lgan paradigmalarni strukturali, tashkiliy-funksional, tizimli, ijtimoiy hayotga oid, jamiyatning muhim bir qismi kabi elementlar orqali tadqiq qilinadi [15; – B. 59]. Migratsiya paradigmalari sotsiologik talqin qilinar ekan, uni o'rganishga bo'lgan asosiy urg'u inson xulq-atvori va shaxs faoliyatini motivatsiyasiga qaratiladi. Taniqli sotsiologlar P.Sorokin, P.Burde, P.Shtompka, E.Giddens va boshqalarning qarashlarida migratsiyani tadqiq etish dialektik paradigmaga asoslangan bo'lib, unda ijtimoiy voqe'lik ob'ektiv va sub'ektiv, strukturali va dinamik, jamoaviy va xususiy-individul jihatlariga ko'ra tadqiq etiladi. Mukammal sotsiologik tadqiqotlar turli xil fan uslublari bilan hamkorlikda, ya'ni kompleks tadqiqotga asoslanilsa, muhim ma'lumotlarni qo'lga kiritish imkoni oshadi. Migratsiya jarayonlari, xususan, intellektual migratsiyani tadqiq etishda iqtisod, psixologiya, antropologiya, madaniyatshunoslik kabi fanlarning ilmiy yo'nalishlari asosida muammoni o'rganish G'arb tadqiqotlarida ko'plab amalga oshirilgan.

Migratsiya qonuniyatlarini ob'ektiv baholashda uning ijtimoiy oqibatlarini, samarali boshqaruvni tashkil etishda pozitiv yondashuvga e'tibor beriladi. Ushbu yondashuvning mohiyati shundaki, har bir individ yoki oilani migratsion xulq-atvor bilan bir qator omillarga bog'liq bo'lgan individual tanlov natijalariga asoslanib pozitiv yondashuvda ushbu omillar geografik, iqtisodiy va ekologik jihatlarini qamrab olib o'rganish mumkin [16; – B. 361-402].

Migratsiya jarayonlarini tadqiq etishga qaratilgan va tarixnavislik ruhida yozilgan U.Tomas, F.Znaneskiylarning besh jildidan tashkil topgan "Polyak dehqoni Yevropa va Amerikada" nomli asari metodologik jihatdan hozirgi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotmay kelmoqda. Bixeviorizm nazariyasiga asoslangan ushbu asar migrant xulq-atvoridagi yangi namunalarni shakllantirgan jihatlarni tadqiq etgan. Mualliflar xulosasiga ko'ra: "migrant xulq-atvori bu muhitga moslashishdir va albatta asab tizimini moslashtirish shaklida davom etadi" [17; – B. 741]. Asarning mukammalligi shundaki, har ikkala muallif o'z davri muammolarini sotsiologik yondashuv bilan, ilmiy tadqiqotlar yordamida ochib bergan. Shu boisdan ushbu asar hozirgi kunga qadar o'zining ilmiy-metodologik ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Polyak emigrantlarining shaxsiy hujjatlarini o'rganish asosida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar va ular bilan bo'lgan suhbatlar asnosida yangi sotsial xarakter tipologiyasi alohida insonlar misolida ishlab chiqiladi. Moslashuv, individning muhitga moslashuvi mexanizmlari qay tartibda kechgani sotsiologik tahlil etiladi. U.Tomas va F.Znaneskiylarning bixevioristik ta'limoti keyinchalik migrant ijtimoiy xarakterini belgilashda samarali ijtimoiy siyosat instrumenti vujudga kelishiga xizmat qildi. Migrant ijtimoiy xulq-atvorini o'rganishda XX asrning 60-70-yillarida Amerika sotsiologiyasida muhim o'rin tutgan "Inson ekologiyasi" nazariyasining o'rni katta bo'ldi. Lekin keyinchalik ushbu nazariya nufuzi tushib ketdi va o'z ahamiyatini yo'qotdi. R.Park va R.MakKenziylar [18; – B. 384-

401] asos solgan ushbu ta'limot sanoatlashish va urbanizatsiyaning inson ijtimoiy xulq-atvori ta'sirida vujudga keladi.

Ko'plab mutaxassislar va sotsiologlar uchun tushunarsiz ushbu nazariya sabablari quyidagi ko'rsatgichlar bo'yicha izohlanadi: birinchidan, migratsiya va migrant xarakteri ma'lum bir muhitga joylashish va shu yerda ko'payish (populyatsiya) orqali bo'lar ekan, unda moslashish (adaptatsiya) jarayonini ko'rsatish shart emas. Ikkinchidan, ayrim tadqiqotchilar moslashuvni "qora quti"ga qiyoslaydilar. Unga ko'ra, harakatdagilar va unga ta'sir o'tkazilayotganlar ko'rinmaydi. Uchinchidan, inson ekologiyasini tanqid qilishdan asosiy maqsad, to'rtta mavzu, ya'ni a) ko'payish (populyatsiya). b) tashkil etish, v) tashqi muhit, g) texnologiyalar bir-biriga bog'liq emas [19; – B. 432-457].

Sotsiologiyada migratsiya yoki intellektual migratsiyani tanqid etishdagi metodologiya strukturali funksiyali nazariya hisoblanadi. Unda migrantlarning ijtimoiy omili tizimli funksional hodisa sifatida olib qaraladi (T.Parsons). Aholining migratsiya jarayonidagi ishtiroki uzoq muddatli ijtimoiy transformatsiyalashuvdir. Kishilar jamoasining migratsiyaning turli shakllardagi qatnashishi, disfunktsional holatni chaqiradi. Ya'ni odamlarda qo'rquv va bosim kabi og'riqli nuqtalar kuzatiladi (E.Dyurkgeym). Shuningdek, migrantning ijtimoiy funksiyasi aniq va kechikkan (latent) tasniflarga bo'linishi mumkin (R.Merton) [20; – B. 261].

XX asrning 70-yillariga kelib, M.Kastels, M.Nikolinakos, G.Kosak va S.Kastl asarlarida migratsiya jarayonlari kapitalizmning notekis rivojlanishi va dunyo tizimining bir tekisda kechmasligiga qaratilgan taraqqiyotga qaramlik nazariyasiga asoslanib yoritiladi [21; – B. 79]. Ularning ta'limotlarida ko'chib yuruvchilar, shu jumladan, intellektual migrantlar ham "zahiradagi mehnat qo'shinlari"deb nomlanadi va ular timsolida "G'arb mamlakatlarining turmush darajasini ko'taruvchi" kuch sifatida qaraladi. Har qanday jismoniy faoliyat, og'ir yoki yengil ishlarga jalb qilish uchun G'arb mamlakatlari eng avvalo, bunday ishchi kuchlarni tashqaridan, immigrant yoki migratsiya jarayonida qatnashuvchilar orasidan tanlab olishi tushuniladi.

Avvalgi tashqi koloniyalar o'rnini yangisi egallaydi. Faqat endi ular ichki koloniyalar, deb nomlanadi. Dunyo miqyosida kapitalistik tizim chekka-chekka joylardan chekinib, markazlashadi va kapital jamg'armasi demografik jarayonlar ustiga qaraladi. Emigrant mamlakatlar sifatida avvalgi koloniyalarning o'zi qoladi, endi ijtimoiy larzaga tushish manbasi emigrantlar hisobiga amalga oshiriladi [22].

M.Gordin va J.Xandlinlarning assimilyatsiya yoki qorishib ketish nazariyasida o'zga mamlakatga borgan emigrantlar moslashishi jarayonlarini bir chiziqli tamoyil asosida amalga oshirishi tushuniladi. Qorishib ketish nazariyasi tasodifiy hodisa bo'lib, unda kam sonli chet ellik migrantlarga nisbatan qo'llaniladi va bu sotsiologiyaning umumiy funksional paradigmasi sifatida qaratiladi. Qorishib ketish nazariyasi ko'pincha intellektual migrantlarga nisbatan ishlatiladi [23; – B. 98].

Zamonaviy tadqiqodchilardan G.Jeron va Y.Lilar tomonidan (Pull/Push) diqqatga sazovor joy – chetlashtirish) ta'limoti katta qiziqish uyg'otadi. Ushbu ta'limotga ko'ra insonlar o'zlari yashab o'rgangan joyni kerakli shart-sharoitlar yaratilgan, o'zga shahar hudud va mamlakatlarga almashtirishi yoki ko'chib o'tishi tushuniladi. Geografik jihatdan (Pull and Push) omillari odamlarni biror joydan uzoqlashtirib, yangi joyga tortishlaridir. (Pull and Push) omillar birikmasi migratsiya jarayonlarida yoki boshqa bir yerda, ya'ni alohida, aholi immigratsiyasini aniqlashga yordam beradi. (Pull and Push) nazariyasi bir joydan boshqa joyga ko'chuvchi aholi va migrantlarni o'rganish uchun eng muhim nazariyalardan biri hisoblanadi. Nazariya migratsiya va immigratsiya sabablarini odamlarning migratsiya orqali o'z turmush sharoitlarini yaxshilashi mumkin, deb hisoblashida namoyon etadi [24].

Bu uchta asosiy guruh bilan farqlanadi. Birinchisi, a) diqqatga sazovor joyga borish; b) chiqib ketish; v) migrant yo'nalishi unga ko'ra migrant chiqaruvchi mamlakatlarda jarayonni sodir bo'lishiga sabab bo'luvchi omillar, ya'ni chiqib ketish tanlangan yo'l va diqqatga sazovor joy sxemasi ishlaydi [25; – B. 12-13].

Bu kontekstda O'zbekistonlik sotsiolog A.P. Seitovning fikrlarini ham keltirish mumkin [26; – B. 129-137]. Unga ko'ra, zamonaviy migratsiya Vatan bilan uzilish belgilarini yo'qotgan, chunki

doimiy raqamli kommunikatsiya kanallari mavjud. Shu bilan birga, u aynan ayollarni o'ziga xos yumshoq kuch agentlari sifatida ta'kidlaydi. Ushbu genderli kundalik hayot o'tkazuvchisi tashqi oilaviy siyosatning muhim elementi bo'lib, davlat sa'y-harakatlarini to'ldiradi.

Intellectual migratsiya mavjud migratsiya muammolarini va ularning miqdori, tarkibini, shaxsiy tavsifi va ruhiyatini o'rganishga qaratilgan nazariyalarda ham ifodala, u etnosotsiologik ta'limot orqali o'rganiladi. Uning namoyondalari K.Devis, Yu.Arutyunyan, L.Drobejovalar migrantlarni ijtimoiy guruh sifatida tadqiq etar ekanlar, undagi individual hoxish-istaklar uchun olingan mo'ljallarga e'tibor qaratadilar [27; – B. 264-374].

Etnosotsiologik yo'nalish madaniyat omili va ijtimoiy muhitga qarab tarixiy an'analarni transformatsiyalashuvi jarayonlarida sodir bo'ladi. Bunda tarixiy yondashuv etnografik yondashuv bilan uyg'unlashgan holda etnosotsiologik yondashuvni vujudga keltiradi. Ijtimoiy faoliyat nazariyasi M.Vebernint tushunuvchi sotsiologiyasida aks ettirilgan bo'lib, migrantlarning o'z o'rnini belgilashda ijtimoiy faoliyat modellarini tadqiq etishga qaratiladi. Shuningdek, T.Parsonsning tizimli struktura, A.Shyus, P.Burde, T.Lukmanlarning fenomenologik ta'limoti va G.Garfinkelning etnometodologiyasida sotsial voqe'likni talqin qilish migratsiya jarayonlariga bog'lab o'rganiladi.

Migratsiya bilan bog'liq yoki migratsiya aloqalari nazariyasi G'arb sotsiologiyasida so'nggi yillarda keng talqin etilib, unda G.Lourining ijtimoiy kapital ta'limoti qo'llaniladi. Ushbu ta'limotni P.Burde ham qo'llab-quvvatlaydi. Ijtimoiy kapital nazariyasi tarmoq gipotezalar orqali migrant hayotining buguni va o'tmishidagi o'zaro aloqadorlikni talqin qiladi. Migratsiya tarmog'i deganda, migrantlar va mahalliy aholining bir-birlari bilan o'zaro aloqalari natijasida vujudga keladigan munosabatlardagi hamkorlik yoki kelishmovchilik, simpatiya yoki antipatiya, do'stlik yoki o'zaro tushinishning yo'qligi tahlil etiladi. Umuman olganda, tarmoq aloqalar migrant hayotini u yoki bu jihatdan ijobiylik tomonga o'zgartiradi, migratsiya jarayonlarini ijtimoiy voqealikni atributi sifatida ko'rib chiqadigan yana bir ta'limot – bu ijtimoiy o'zgarishlar nazariyasidir, ushbu ta'limot asoschilari Ya.Shepanskiy, P.Shtopkalar migrantlarning ijtimoiy vazifalarni talqin qilish va tadqiq etishda o'zaro faoliyatga kirishi aktlarini ilgari suradilar.

XULOSA

Umuman olganda, migratsiya, intellectual migratsiyani sotsiologik o'rganish ilmiy ahamiyat kasb etib, u quyidagi yo'nalishlar bo'yicha tasniflanadi:

- migratsiya mobilligi aholining turli ijtimoiy guruhlarining o'rtasida sodir bo'ladi (intellectual migratsiya ham);
- o'z ijtimoiy maqomidan kelib chiqib, migrant (intellectual migrant) ning hududiy joylashishi yoki o'ziga makon belgilashi;
- migratsiya mobilligiga ta'sir qiluvchi holatlar ijtimoiy kelib chiqish, ta'lim, ijtimoiy maqom va etnik-konfessional jihatlarni qamrab olishi mumkin;
- migrant xulq-atvorini belgilab beradigan ijtimoiy va referent guruhlarining hozirgi yoki o'tmish muhitiga ta'siri, shaxsiy ko'rsatmalar dinamikasining migrant ongi va xulq-atvoriga ta'siri;
- yashash joyini o'zgartirish va yangisiga moslashish jarayonida individ va ijtimoiy guruhlarining qiziqishlari va kutishlari;
- migratsiya jarayolarining harakatga kelishidagi maxsus qonuniyatlar;
- migrant xulq-atvordagi umumiy va o'ziga xos tavsiyalar, ularni tartibga solishning ijtimoiy mexanizmi;
- migrantlarning ijtimoiy va etnosotsial hamkorligi (integratsiya) va sharoitga moslashuva (adaptatsiya). Bunda o'zga joy tilini o'rganish, qonun va qoidalarni o'zlashtirish, immigratsiya muhitidagi nikoh, migrant sifatida o'zini anglashi va baholash kabilarga e'tibor qaratiladi;
- migrantning siyosiy faoliyati va uning yangi jamiyatdagi siyosiy o'rni, millatchilik yoki shavinizm masalalari, shuningdek, kutilishi mumkin bo'lgan madaniy ziddiyatlar.

Respublika yoki mahalliy davlat tuzilmalari, nodavlat tashkilotlari, ta'lim muassasalari, professional jamoalarni, taklif etilayotgan chora-tadbirlarni amalga oshirish uchun qiziqqan tashkilotlarning keng birlashmalarini tuzib, mazkur g'oyalarni ishlashi uchun shart sharoitlar yaratib kelib chiqqan va yaqinda kelibchiqadigan muammolarni bartaraf etish lozim.

Ta'lim migratsiyasi, intellektning ko'chishi va intellekt migratsiyaga ishtirok etuvchi malakali migrantlarni tarixiy vatandosh mamlakatiga qaytarish uchun yillik dasturlar, ijtimoiy-iqtisodiy loyiha va grantlarni tashkil qilish, mamlakatdagi yirik kooperativ tashkilotlar, katta korxonalarni chet el kompaniyalari bilan birgalikda muddatli loyihalarni joriy etish kerak, qabul qiluvchi va jo'natuvchi har ikkala mamlakat ichki va tashqi yordamni ta'lim migrantlari uchun ayamasligi, shartnoma asosida, qaytish sharti bilan yuqori malakali mutaxassislarni chet elga yuborish orqali mamlakatlarni har tomonlama o'zining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini ko'tarishadi.

Intellektual migratsiya yuzaga kelar ekan, u mamlakatlar o'rtasida inson kapitalini qayta taqsimlashga olib keladi. Ilmli va istiqbolli mutaxassislarni migratsiya jarayonlardagi ommaviy ishtirok etishi yo'naltiruvchi mamlakatlarni iqtisodiy o'sishi va mamlakat inson kapitalini inson salmog'iga sezilarli ta'sir o'tkazadi. 2010 yillardan boshlab MDH mamlakatlari ommaviy axborot vositalari hamda matbuotda ilmga asoslangan iqtisodni shakllantirish ijtimoiy hayotga nanotexnologiyalarni joriy etish va innovatsion taraqqiyot mo'ljallashish kabi mavzular dolzarbligini har doim o'zini ko'rsatmoqda. Ko'plab davlatlarda innovatsiya investitsiya siyosati fan, ta'lim, ilmiy tadqiqotlarda qo'llanishini zarurat sifatida qo'rsatildi.

Amaldagi voqealik ko'rsatmoqdaki, yuqori malakali va salohiyatga ega mutaxassislarni tayyorlash mumkin, ammo, ularni mamlakat hududida saqlab qolish ijtimoiy, iqtisodiy infratuzilmaga jalb etishga, ko'plab mamlakatlarni imkoni va salohiyati yetmas ekan, shu sababli, bu kabi mamlakatlarning hukumatlari ushbu muammoni yechimini topish uchun istiqbolli rejalar ishlab chiqishga o'rganish kerak yoki iste'dodli kishilarni mamlakatni tashlab chiqib ketishiga yon berishga majbur bo'lishi shart.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Korobkov A.V. and Zh.A.Zaionchkovskaia. "Russian Brain Drain: Myths and Reality." Communist and Post-Communist Studies. Special Issue on Disintegration of the Soviet Union; vol. 45, no. 3-4, September-December 2012, 327-4
2. Отчет «Исследование российской научно-технологической диаспоры в развитых странах: условия и возможности возвращения научных кадров и использование потенциала»: [Электронный ресурс] // Инновационное бюро Эксперт. 2009.
3. Блантер С., Нагайцева Е. Методология и методы изучения миграционных процессов // Социологические подходы к изучению миграции. - М.: 2007. – С. 59.
4. Отчет «Исследование российской научно-технологической диаспоры в развитых странах: условия и возможности возвращения научных кадров и использование потенциала»: [Электронный ресурс] // Инновационное бюро Эксперт. 2009.
5. John Gibson, David McKenzie, The Economic Consequences of "Brain Drain" of the Best and Brightest. Microeconomic Evidence from Five Countries// The World Bank Development Research Group. 2010.
6. Frédéric Docquier and Hillel Rapoport, Globalization, Brain Drain, and Development // Journal of Economic Literature. 2012. Vol. 50. – PP. 681-730.
7. Lucas, R. E., Why Doesn't Capital Flow from Rich to Poor Countries? // American Economic Review. 1990. Vol. 80. – PP. 92-96.
8. Центр гуманитарных технологий, <http://gtmarket.ru/laboratory/expertize/2008/1653>.
9. Глущенко Г.И. Воздействие миграции квалифицированных работников на мировое экономическое развитие // Общество и экономика, № 3. 2005. – С. 261.
10. Yatslco P. Brain Circulation // Forbes. 2002. – P. 67.
11. Education Indicators in focus // OECD. 2013.
- 12, 13, 14. Recent developments in international migration movements and policies// International Migration Outlook, OECD. 2013.
15. Блантер С., Нагайцева Е. Методология и методы изучения миграционных процессов // Социологические подходы к изучению миграции. - М., 2007. – С. 59.

16. Todaro M. Internal migration in developing countries: a survey // Population and economic change in developing countries. / Ed. R. Easterlin. – Chicago: University of Chicago Press. - 1980. – P. 361-402.
17. Thomas W., Znaniecki F. The Polish peasant in Europe and America. – New York, 1958. – С.741.
18. Парк Р. Экология человека// Теория общества. / Под ред. А.Ф. Филиппова. – М.: Канон-Пресс-Ц, Кучково поле, 1999. – С. 384-401.
19. Smith D. The new urban sociology meets the old: re-reading some classical Human Ecology // Urban Affairs Review. – 1995. – №30. – P.432-457.
20. Социология. Методология. Методы. – М., 2005. – 261 с.
21. В движении добровольном и вынужденном: постсоветские миграции в Евразии. / Под ред. А.Р. Вяткина Н.П. Космарской, С.А. Панарина. – М.: Наталис, 1999. – С. 79.
22. Шанин Т. Путешествующие крестьяне и трудящиеся мигранты//<http://ruralworlds.msses.ru/classical/peasant/part2.html>.
23. Gordon M.M. Assimilation in America: the theory and reality// The ethnic factor in American politics.- Columbus, 1970. – P. 98.
24. <https://www.thoughtco.com/push-pull-factors-1434837>.
25. Немерюк Е.Е. Миграция как вид социальной мобильности в современном российском обществе (теоретико-методологический аспект). Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. – Саратов, 2000. – С. 12-13.
26. Сеитов А.П. Проблема климатической миграции в Узбекистане: социологический аспект. / Climate migration in Central Asia: challenges and solutions. Сборник материалов конференции. – Ташкент: Baktria press. 2023. - С. 129-137.
27. Ионцев В.А. Социологические подходы к изучению миграции населения. // М.: 2018. – С. 264-374.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 3 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 3

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000